



QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA BOSHQARUV USULLARIDAN FOYDALANISHNIG ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARI

Davletmuratov Maman Esqaliy uli

Berdaq nomidagi Qoraqalpo davlat universiteti

70310102 «Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi 2 bosqich
magistranti

Annotatsiya: Maqolada qurilish materiallari sanoati korxonalarida boshqaruv usullaridan foydalanishnig ilg'or xorijiy tajribalari o'rganilgan bo'lib ularni mamlakatimizda qo'llanish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Qurilish materiallari, sanoat, bosh pudrat, loyihalash, qurilish ishlari, qurilish loyihasini boshqarish.

Erkin raqobat va raqamlashtirilgan innovatsion rivojlanishga yo'naltirilgan iqtisodiyot bugungi zamonaviy bozor iqtisodiyotining asosiy xususiyati bo'lib sanaladi – bu xususiyat so'nggi bir necha o'n yillar davomida shakllanib keldi. G'arbdagi rivojlangan mamlakatlarda har bir avlod o'zidan oldingi avlodlarning tajribalarini inobatga olib, ularning yo'l qo'ygan xatoliklarini va kamchiliklarini tahlil qilib o'z davri iqtisodiyotini boshqarishning yangi metodlari hamda usullarini izlab topdi, sivilizatsiyalashgan bozor iqtisodiyoti uchun xos bo'lgan tanazzullar, turg'unliklar va stagnatsion holatlarni oldindan ko'ra bilish va ularga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqishni o'rgandi. Bu xususiyat shu jumladan, xorijiy mamlakatlardagi qurilish materiallari sanoatining rivojlanish tendensiyalarida ham ko'zga tashlanib, mazkur tajribani o'rganish bizning mamlakatimizdagi qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalari faoliyatini boshqarish usullaridan foydalanish mexanizmi samaradorligini oshirishda foydadan xoli bo'lmaydi.

Qurilish materiallari sanoati korxonalarida boshqaruv usullaridan foydalanishnig ilg'or xorijiy tajribalarini o'rganish davomida chet el mamlakatlarining investitsion-qurilish bozorida faoliyat ko'rsatuvchi qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi firmalar va kompaniyalarning raqobatbardoshligi hamda ular faoliyatining ishonchliligini oshirish uchun foydalaniladigan asosiy omillar, yo'llar va vositalar yaqqol ko'zga tashlanadi.

Agarda bu masala borasida katta tajriba to'plangan dunyoning yetakchi iqtisodiyotiga ega bo'lgan AQSH qurilish sohasiga diqqat qaratadigan bo'lsak, ko'rishimiz mumkinki, bu mamlakat quruvchilari va qurilish materiallari ishlab chiqaruvchilar



uchun qurilish ob'ektini barpo etishda erishilgan juda qisqa muddatlar chegaraviy bo'lmasdan, bu muddatni yanada qisqartirish imkoni mavjud deb hisoblanadi – bu esa rasmiy ma'lumotlar bilan tasdiqlanib kelinayotgan qurilish muddatini har yili yanada qisqartirishni barqaror holda amalga oshirish uchun imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Alohida ta'kidlab o'tish zarurki, qurilish ob'ektlarini barpo etish muddatlarini qisqartirish mazkur ob'ekt (ayniqsa, ishlab chiqarish ob'ektlari) bir vaqtning o'zida murakkablashuvi, ularning boshqaruv va aloqa bo'yicha muhandislik tizimlari, texnologik qurilmalar bilan jihozlanishining yanada yaxshilanishi sharoitlarida ro'y beradi. Bunda bizning mamlakatimizda eski tizimdan meros bo'lib qolgan amaliyotdan farq qilgan holda amerikalik quruvchilar va qurilish materiallarini ishlab chiqaruvchilar smenalilik koeffitsientining oshishiga yo'l qo'ymaydilar, chunki bu mehnat unumdorligini pasaytirib yuboradi (bu hatto 10 % gacha bo'lishi ham mumkin), ishchilarga qo'shimcha to'lovlar to'lash va boshqa sarflarning ortishi (3-5 % gacha) hisobiga qurilish ob'ekti qiymatini oshirib yuboradi va ish sifatini yomonlashtiradi deb hisoblanadi. Shuning uchun AQSH dagi, jumladan, Germaniya, Finlyandiya, Fransiyadagi qurilish va qurilish materiallarini ishlab chiqarish sohasi bir smena davomida ish yuritish tartibi bilan mashhurdir[1.].

Shu bilan birga, Yevropa qurilish bozorini baholashda turli xil qarashlar mavjuddir. Misol uchun, Expert Market Research kompaniyasining ma'lumotlariga ko'ra Yevropa qurilish bozori hajmi 2024 yilda 2,62 trln dollarga yetdi deb baholangan bo'lsa, Research&Markets kompaniyasi keltirgan ma'lumotlarga mos holda bu hajm 3,02 trln dollar deb hisoblanadi. Qurilish va qurilish materiallari sektori muhim ahamiyatga ega va shu sababli Yevropadagi po'lat ishlab chiqaruvchilarning diqqati aynan mana Shu sektorga qadalgan, chunki Yevropalik quruvchilar va qurilish materiallari ishlab chiqaruvchilar qit'ada yuzaga keladigan po'latga bo'lgan umumiy talabning 35 % ini shakllantiradilar. Yevropa komissiyasining ma'lumotlari bo'yicha qit'adagi qurilish sektorida 18,0 mln kishi mehnat qiladi, ular esa Yel da hosil qilinadigan YaIM ning 9 % ni yuzaga keltiradilar[3].

Yevropadagi qurilish bozorining umumiy hajmida umumqurilish ishlari 7 % ni, uy-joy qurilishi – 23 % ni, noturar-joy fondi – 13 % ni, ta'mirlash va qayta tiklash ishlari – 57 % ni tashkil qiladi[2].

Shuningdek, Yevropa qurilish bozoridagi asosiy tendensiyalar sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish ham mumkindir:

1. Qurilish mahsulotlari va texnologiyalarining globallasuvi va baynalmilallasuvi;
2. Qurilishda va qurilish materiallarini ishlab chiqarishda tizimli qarorlarga o'tilishi – bu mazkur sohalarda sarf-xarajatlarni optimallashtirishga olib keladi;



3. Qurilishda va qurilish materiallarini ishlab chiqarishda energiya tejamkor texnologiyalar hamda materiallarni qo'llashga intilish;
4. Tez barpo etiladigan konstruksiyalarning joriy etilishi – bu ham qurilish muddatini qisqartiradi va sarf-xarajatlarni optimallashtiradi;
5. Qurilish materiallarini ishlab chiqarish va qo'llashda ekologik tozalikka diqqatning oshirilishi [5].

Yevropada ham, AQSH da ham qurilish va qurilish materiallarini ishlab chiqarishni tashkil etish hamda boshqarishda yangi samarali shakllarni faol ravishda izlab topish kuzatilib, ayniqsa, AQSHda bunga doimo katta e'tibor qaratiladi. Qurilish materiallarini ishlab chiqarish va ularni qurilishda qo'llash sohasida yangi boshqaruv shakllarini joriy qilish uchun kuch va vositalar keng miqyosda jalb etiladi. Chunki bu qurilish materiallari ishlab chiqarishni boshqarish tizimini takomillashtirish sohasiga kiritiladigan investitsiyalar eng foydali investitsiya yo'nalishlaridan biri deb hisoblanadi[6].

G'arb mamlakatlarida qurilish materiallarini ishlab chiqarish kompaniyalarida boshqaruvni tashkil etish usullari sezilarli ravishda namunaviy shartnomoalar shakllari bilan shartlanadi. G'arbdagi qurilish bozoriga xos bo'lgan qurilish ishlari va qurilish materiallarini ishlab chiqarishni boshqarishning asosiy tashkiliy shakllari qatorida quyidagi to'rtta shakllarni ajratib ko'rsatish mumkindir:

1. Bosh pudrat.
2. Loyihalash-qurilish ishlari.
3. Qurilishni va qurilish materiallari ishlab chiqarishni boshqarish.
4. Loyihani boshqarish.

Bundan tashqari, mazkur metodning jiddiy kamchiliklaridan biri bo'lib loyiha hujjatlarini tayyorlash va bosh pudratchini izlab topish (ba'zan pudrat tanlovi (tender) o'tkazish ham zarur bo'lib qolar edi) talab etiladigan qurilish ishlarining boshlanguniga qadar tayyorgarlik davrining uzoq cho'zilib ketishi sanalar edi.

O'tgan asrning 80-yillarida AQSH da o'tkazilgan maxsus tadqiqot ko'rsatdiki, qurilishni boshqarish va loyihani boshqarishning tashkiliy shakllari buyurtmachilarning manfaatlariga eng yaxshi tarzda mos kelib, bunda mazkur shakllar qurilish va qurilish materiallarining qiymati, uni tayyorlash muddati va sifati kabi muhim ko'rsatkichlarning optimallashtirishini ta'minlay oladi. Shunga ko'ra, AQSHda loyihani boshqarish ko'rinishidagi tashkiliy shaklni qo'llash bilan bajariladigan qurilish ishlari hajmining har yillik o'sishi 5 % gacha yetadi. Bu eng avvalo, mazkur jarayonlarga ilgari bunday ishlar bilan Shug'ullanmagan qurilish materiallarini ishlab chiqaruvchi va qurilish ishlarini amalga oshiruvchi yangi firmalarni jalb qilish evaziga



yuzaga kelib, bunda eng yuqori faollikni injiniring firmalari ko'rsatadilar – ularning hisobiga barcha ishlarning 2/3 qismi to'g'ri keladi[4].

Shu narsa qiziqki, AQSH da jami qurilish ishlar hajmining deyarli 40 % i sanoat firmalarining qurilish bo'linmalari tomonidan, 40-45 % lik qismi esa – qurilish ishlari hajmi 100,0 ming dollardan oshadigan pudratchi qurilish firmalari, 6-10 % lik qismi esa – davlat qurilish firmalari tomonidan bajariladi. Bunda aksariyat qurilish firmalari "loyihalash-qurish" tipidagi shartnomalarni bajarish bo'yicha faoliyatni kengaytirishga intiladilar. Bunday o'sishga eng avvalo, ilgari bunday faoliyat bilan shug'ullanmagan firmalarni ham shu faoliyat sohasiga jalb qilish bilan (ya'ni, bozorga raqobatchilarni kirib kelishga undash bilan) erishiladi. Bu borada muhandislik-arxitektura va arxitekturaviy-muhandislik firmalar ancha faol bo'lib, ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 2/3 qismi to'g'ri keladi.

Mutaxassislarining fikricha, AQSH dagi ko'plab loyihalash-qurish firmalarining muvaffaqiyati aynan mana tashkiliy shaklga murojaat qilishlari bilan bog'liqdir. Shu bilan birga, davlat sektoridagi buyurtmachilarning ham aynan mana Shu shaklga murojaat qilishlari ham ko'payib borib, bunda ular qurilishni boshqarish sohasidagi majmuaviy mutaxassislar bilan ish olib borishni afzal ko'radilar, chunki bu eng malakasi yuqori kadrlarga ega bo'lgan pudratchilar bilan Shartnoma tuzish imkoniyatlarini oshiradi.

Bu borada nemis firmalarining alohida farq tomoni bo'lib shu narsa hisoblanadiki, bunga ko'ra ular o'z faoliyatlarini diversifikatsiyalamaydilar (garchi ularning ko'pchiligi hatto 100 yildan ortiq vaqt mobaynida faoliyat yuritib kelayotgan bo'lsa ham), aksincha, nemis qurilish firmalari o'z diqqat-e'tiborini asosan qurilish ishlab chiqarishiga qaratadilar. Barcha yirik nemis pudrat tashkilotlari dunyoning ko'plab mamlakatlarida o'z filiali va sho'ba korxonalariga ega, lekin hech qachon o'zlari boshqa transmilliy korporatsiyalarning filialiga aylanishni istamaydilar.

Nemis qurilish firmalar va qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalari amaliyotida yuqori yoki to'la zavod tayyorgarligiga ega bo'lgan mobil blok-modullardan iborat istalgan maqsadlardagi ob'ektlarni barpo etishga barqaror tendensiya muntazam ravishda kuzatib kelinadi. Nemis qurilish materiallari firmalari va pudrat tashkilotlari hozirga kelib tobora ko'proq ravishda boshqa mamlakatlardagi mahalliy qurilish firmalari bilan kooperatsiyaon aloqalarga kirishishga majbur bo'lmoqdalar – chunki ularning kontragentlari (masalan, Saudiya Arabistoni, Nigeriya kabi mamlakatlardagi kabi) hozirda savdo jarayonlariga ruxsat olish sharti sifatida qo'shma korxona va kooperatsiyalaShuvning boshqa Shakllari tuzilishini talab etishga o'tmoqdalar.



Rivojlanayotgan mamlakatlarda xorijiy shartnomalarni bajarish davomida nemis firmalari past malakali va yarim malakali ishlarni bajaruvchi ishchi-xodimlarni mahalliy joylardan tanlab oladilar, yuqori malakali mutaxassislar (ish bajaruvchi ustalar, mashina-mexanizmlar operatorlari va boshqa shu kabilar)ni o'zlarining doimiy tarkibidan tanlaydilar.

Germaniyadagi qurilishni boshqarishning G'arbiy Yevropada keng tarqalgan tashkiliy shakllari o'ziga xos xususiyatlarga ham ega sanaladi. Shunga ko'ra, masalan, loyihalash tashkilotining buyurtmachilari, jumladan, bosh pudratchilar qurilishni boshqaruvchi sifatida ish olib borishi ham mumkin. Bunda bosh pudratchilar hech qanday qurilish jarayoniga taalluqli ishlarni bajarmagan holda qurilishni boshqaruvchi sifatida faoliyat yuritishlari mumkin, lekin bunda qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish bo'yicha buyurtmachi oldida to'la javobgar bo'lib hisoblanadilar.

Qurilish materiallari ishlab chiqarish va qurilish ishlarini amalga oshirish borasida barqaror o'sish an'alariga ega bo'lgan mamlakatlar bilan bir qatorda qisqa muddatlar ichida sezilarli yutuqlarga erisha olgan mamlakatlar orasida Janubiy Koreya tajribasi ham diqqatga sazovordir. Janubiy Koreya cheklangan tabiiy resurslarga, kichik ichki bozor hajmiga, ichki jamg'armalarning uncha ko'p bo'lmagan hajmiga ega bo'lgan, shuningdek, ulkan qurilish ishlarini amalga oshirish va shunga mos ravishda keng assortimentdagi qurilish materiallarini ishlab chiqarishda uncha ko'p tajribaga ega bo'lmagan mamlakat bo'lib hisoblanadi. lekin mana shularga qaramasdan, Janubiy Koreya so'nggi bir necha o'n yilda xalqaro qurilish bozorida kuchli iqtisodiy kuchga ega bo'lgan mamlakatga aylandi. Dunyoning 33 ta mamlakatida band bo'lganlar soni 150,0 mingdan ham ortiq bo'lgan Janubiy Koreya kompaniyalari faoliyat olib boradi. Jumladan, qurilish materiallari ishlab chiqarish va qurilish ishlarini bajarishga ixtisoslashgan Janubiy Koreyaning 25 ta xalqaro kompaniyalari dunyodagi 250 ta yirik pudratchi kompaniyalar qatoriga kiradi. Umuman olganda, Janubiy Koreya qurilish materiallari va qurilish tarmog'i mamlakatning yirik moddiy ishlab chiqarish tarmoqlaridan biri bo'lib sanaladi. Qurilish tarmog'ida 1,5 mln dan ortiq kishi faoliyat yuritadi, bu esa Janubiy Koreyadagi jami binda bo'lganlarning deyarli 7,1 % ini tashkil etadi.

Qurilish materiallarini ishlab chiqarish va qurilish ishlari sohasidagi yuqorida bayon etilgan zamonaviy tashkiliy shakllar qotib qolgan bo'lmagan, aksincha, ular vaqt o'tishi davomida o'z ko'rinishini mazkur sohada faoliyat yuritadigan korxonalarning ichki va tashqi muhitida ro'y beradigan o'zgarishlarga, davr talabiga mos holda o'zgartirib bora oladi.



Ravshanki, mamlakatimiz qurilish materiallari sanoatida faoliyat yuritayotgan korxonalarimiz hozircha ko'pchilik yo'nalishlarda o'zlarining xorijiy raqobatchilariga yutqazadilar. Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi mahallik korxonalarimizning bo'sh tomonlari sifatida ularda qurilish materiallarini yetkazib berishda shartnmoa shartlarini har domi ham sifatli va to'liq bajarmasliklari, zamonaviy va samarali tashkiliy shakllarni qo'llashda orqada qolayotganliklari, ilgari qo'llanib kelinayotgan tashkiliy tuzilmalardan voz kecha olmayotganliklari kabilarni ko'sratib o'tish mumkin.

Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun qurilish materiallari sanoati korxonalarida tashkiliy tuzilmalarni takomillashtirish, ularni qat'iy talablar doirasida ishlashga o'tkazish, raqobat kurashida yuzaga kelayotgan masalalarni o'z vaqtida va samarali hal qilishga intilishlari tartibini yo'lga qo'yish zarurdir. Aynan optimal tashkiliy tuzilmani tanlay olish qobiliyati qurilish materiallari korxonalari uchun muvaffaqiyatli faoliyat yuritishning garovidir.

Bundan tashqari, iqtisodiyotning va ilm-fan sohasining muvaffaqiyatli rivojlanishi ham qurilish materiallarini ishlab chiqarish sohasining ilmiy ta'minotiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, bu qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi firmalarning tashkiliy Shakli, kadrlarning tayyorgarlik sifati, ularning o'z mehnatining yakuniy natijasidan manfaatdorliklarida ham ko'zga tashlanadi. Bularning barchasi mamlakatimizdagi qurilishi materiallari sanoati korxonalarida boshqaruv usullaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda hisobga olinishi mumkin va shunday bo'lishi ham lozimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Вахмистров А.И.. Роль корпоративных объединений в системе управления региональным строительным комплексом / А.И. Вахмистров, Н.А. Асаул. – СПб.: Стройиздат, СПб., 2003. – 296 с.
2. Викторов М.Ю., Козырев К.В..Зарубежный опыт управления строительных организаций - [Научные труды Вольного экономического общества России](https://cyberleninka.ru/article/n), 2006.- <https://cyberleninka.ru/article/n>.
3. Григоренко Ю.. Обзор ситуации в строительной отрасли ЕС: выводы для стального рынка - <https://gmcenter/posts> Комаров И., Еременко И.. Роль инвестиционной политики в современной экономике/// Обозреватель+Observer. – 2000. – №12. – С. 45–50.
4. Kalmuratov B. S. Стратегия развития инновационного управления промышленного комплекса Республики Каракалпакстан //Theoretical & Applied Science. – 2021. – №. 1. – С. 379-387.



5. Калмуратов Бахтияр Сейтмуратович, Бектурдиев Максат Бекбергенович ФОРМИРОВАНИЕ ИННОВАЦИОННОЙ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ В КОНКУРЕНТНОЙ СРЕДЕ СТРОИТЕЛЬНОЙ ИНДУСТРИИ // Бюллетень науки и практики. 2021. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/formirovanie-innovatsionnoy-strategii-razvitiya-v-konkurentnoy-srede-stroitelnoy-industrii>
6. Калмуратов Бахтияр Сейтмуратович Приоритеты кластерного подхода в инновационной развитой строительной промышленности // Бюллетень науки и практики. 2020. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/prioritety-klasterного-podhoda-v-innovatsionnoy-razvitoy-stroitelnoy-promyshlennosti>